ПРОБЛЕМЫ И ОГРАНИЧЕНИЯ В ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ .....	844
<i>Джулибеков Нурмат Каршибекович, Жулиева Гулноз Юлдашевна</i>	
BIZNES JARAYONLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ASOSLARI .....	849
<i>Yoqubjanov Muminmirzo Nosirjon o'g'li, Erkinxojiyev Ismoiljon</i>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI, AHAMIYATI VA UNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI .....	853
<i>Ernazarov Gulam Bekbaevich</i>	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI .....	860
<i>Mirzokirov Mirramizjon Mirxoshim o'g'li</i>	
ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	867
<i>Урунова Мафтуна Гайратовна</i>	
АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ЭКОНОМИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ .....	871
<i>Некова Фатима Борисовна</i>	
MINTAQA SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KLASTERLASH VA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	876
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI TIZIMINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY TASHKILY-IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH .....	882
<i>Kayumov Z.O.</i>	
O'ZBEKISTONDA VALYUTA KURSINING SHAKLLANISHI VA UNING INFLATSIYA DARAJASIGA TA'SIRI MEKANIZMI.....	887
<i>Matrizayev Zafar Gulimboy o'g'li, Viqorjon Bahriddinov Akbar o'g'li</i>	
МЕХНАТ BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI.....	892
<i>Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	897
<i>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</i>	
НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	901
<i>Мирзаев Кулмамат Джанзакович</i>	



ELEKTR UZILISHLARINING HUDUDIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI .....	906
<i>Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi</i>	
DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	911
<i>Uktamov Sarvar Atxam o'g'li</i>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАНАХ ЕС, США И ЯПОНИИ .....	915
<i>Газизова Эльмира Хамидовна, Мелибаева Гульнора Ачилевна</i>	
SANOATNI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQRARISH SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI .....	921
<i>O'zmanov Ixtiyor Ibragim o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	926
<i>Sherov Sanjar Radjabovich</i>	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI STRATEGIYALAR ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	932
<i>Umurov Jasurbek Jamil o'g'li</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	936
<i>Raxmonov Abduxalil Rasulovich</i>	
INKLYUZIV TA'LIM XIZMATLARINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT, OTM VA IT INFRATUZILMA INTEGRATSIYASI .....	940
<i>Maxkamova Kamola</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA) .....	944
<i>Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich</i>	
UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	950
<i>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</i>	
TIKUV-TRIKOTAJ MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARUVCHI KICHIK KORXONALARNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	956
<i>Abduhamidov Abdurahmon Abdulatif o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA 2026-2030-YILLARGA MO'LJALLANGAN SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	963
<i>Ismailov Timur Atabayevich</i>	
SAVDO LIBERALIZATSIYASINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBIGA TA'SIRI .....	969
<i>Sardorjon Maxmudov Sobirjon ug'li</i>	
MAHALLIY BUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINING UY XO'JALIKLARI FAROVONLIGI VA HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EMPIRIK TAHLIL QILISH .....	977
<i>Safarmurodova Marjona To'raqulovna, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF FINANCIAL SUSTAINABILITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE OIL AND GAS SECTOR .....	982
<i>Ergashev Muhibbek Aslamovich</i>	
O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA FIN TECH KOMPANIYALARI VA BANKLAR HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI .....	988
<i>Rajabova Umida Umurzoqovna</i>	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ПРЕФЕРЕНЦИЙ И ЛЬГОТ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ) .....	995
<i>Отамуродова Дилдора Абдуқримовна</i>	
THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON INTERNATIONAL MARKETING: RESHAPING GLOBAL MARKET ENTRY STRATEGIES AND CONSUMER ENGAGEMENT .....	1001
<i>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Ne'matullyev Bekmirzo Bozorboy o'g'li, Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li</i>	



TARIXIY-MADANIY TURIZM XIZMATLARINI MINTAQADA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1010
<b>Erkayeva Barno Abduraximovna</b>	
GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIYA SHAROITIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MENEJMENT YONDASHUVLARINING ROLI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1015
<b>Mahmudova Madinaxon Jumaboy qizi</b>	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	1020
<b>Т. И. Бобакулов, Г. Ч. Джавлиев</b>	
ECOTOURISM DEVELOPMENT POTENTIAL AND THE ROLE OF GUIDES IN REGIONAL TOURISM GROWTH: EVIDENCE FROM THE NAVOI REGION OF UZBEKISTAN.....	1024
<b>Axmadova Iroda Muzaffar kizi</b>	
DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND ITS PRIORITY DIRECTIONS.....	1030
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Guzal Abdimurodova Panjiyevna</b>	
KORRELYATSION - REGRESSION TAHLILNING QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA QO'LLANILISHI AHAMIYATI.....	1035
<b>Butanova Dilnoza Rustamovna</b>	
MADANIYATLARARO YETAKCHILIK VA LINGVOMADANIY KOMPETENTSIYA BOSHQARUV ISHI SIFATIDA.....	1042
<b>Rahimova Gulnoza</b>	
SANOAT KORXONALARINI YANGI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA BILAN TA'MINLASH JARAYONLARINING HOZIRGI ZAMON HOLATI.....	1052
<b>Akbarova Maloxat Atabekovna</b>	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1056
<b>Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna</b>	
FARG'ONA VILOYATIDA INVESTISIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH BARQAROR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1062
<b>Qo'chqarov Yunusali Sobirjonovich</b>	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL KREDITLASH" TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT.....	1069
<b>Erkinov Farrux Rustam o'g'li</b>	
AKSIZ SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGI TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1075
<b>Nazarova Rushana Ravshan qizi</b>	
MOL-MULK SOLIG'I TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOLIVAVIY ASOSLARI.....	1080
<b>Qodirov Hasan Do'stqobilovich</b>	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI IQTISODIY JARAYONLARNI RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1084
<b>Matyoqubov Yo'ldoshboy Ergashboy o'g'li</b>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI SOLIQ VOSITASI ORQALI QISQARTIRISHDA HUKUMATNING ROLI.....	1089
<b>Pirnafasov Sarvar Bardibayevich</b>	
HUDUDNING TURIST JOZIBADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASH VA TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY TAMOYILLARI.....	1093
<b>Q.A. Musaxanov</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY BOSHQARUV YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1098
<b>Umarova Nilufar Abdukaxor qizi</b>	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1103
<b>Ulashev Xubbim</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA OBODONLASHTIRISH XIZMATLARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.....	1107
<b>Hayitov Jamshid Xolvoyevich, Ibragimova Gulhayo Nuriddin qizi</b>	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	1112
<b>Abdurasulov Sardor To'lqin o'g'li</b>	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO'LOV QOBILYATI HOLATI TAHLILI .....	1119
<b>Adilova Zohida Ikromjonovna</b>	
HUDUDIY IQTISODIY O'SISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL OMILLARI VA SAMARADORLIGI .....	1124
<b>Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li, Sadibekova Bibisara Djapparovna</b>	



# HUDUDIY IQTISODIY O'SISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL OMILLARI VA SAMARADORLIGI

**Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li**

Oriental universiteti katta o'qituvchisi

**Sadibekova Bibisara Djapparovna**

TDSHU, dotsent, i.f.n.

ORCID: 0000-0001-5679-6341

E-mail: bibisha@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston hududlari misolida raqamli transformatsiyaning institutsional omillari va ularning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda qonuniy-me'yoriy baza, e-hukumat rivojlanishi, moliyaviy ta'minot mexanizmlari, inson kapitali va xususiy sektor hamkorligi kabi institutsional omillar tahlil qilingan. Panel ma'lumotlarga asoslangan ekonometrik tahlil (2018–2023 yillar, 14 hudud, 154 kuzatuv) natijasida raqamli infratuzilma indeksining (DII) hududiy yalpi ichki mahsulot o'sishiga ta'siri koeffitsiyenti aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** raqamli transformatsiya, institutsional omillar, hududiy iqtisodiy o'sish, e-hukumat, panel ma'lumotlar, fikslangan effektlar modeli, raqamli infratuzilma.

**Abstract.** This article examines the institutional factors of digital transformation and their impact on regional economic growth using the case of Uzbekistan's regions. The study analyses key institutional factors such as the regulatory framework, e-government development, financial support mechanisms, human capital, and private sector collaboration. Based on panel data econometric analysis (2018–2023, 14 regions, 154 observations), the coefficient of the impact of the Digital Infrastructure Index (DII) on regional GDP growth is estimated.

**Key words:** digital transformation, institutional factors, regional economic growth, e-government, panel data, fixed effects model, digital infrastructure.

**Аннотация.** В данной статье на примере регионов Узбекистана исследуются институциональные факторы цифровой трансформации и их влияние на региональный экономический рост. В исследовании проанализированы такие институциональные факторы, как нормативно-правовая база, развитие электронного правительства, механизмы финансового обеспечения, человеческий капитал и взаимодействие с частным сектором. На основе эконометрического анализа панельных данных (2018–2023 гг., 14 регионов, 154 наблюдения) определён коэффициент влияния индекса цифровой инфраструктуры (DII) на рост валового регионального продукта.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, институциональные факторы, региональный экономический рост, электронное правительство, панельные данные, модель фиксированных эффектов, цифровая инфраструктура.

## KIRISH

XXI asrda raqamli transformatsiya hududiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylangan. Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee [1] ning tadqiqotlari texnologik o'zgarishlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini "ikkinchi mashina davri" kontekstida o'rganib, raqamli texnologiyalarning mahsuldorlikka ijobiy ta'sirini isbotlagan. Biroq, bu ta'sir barcha hududlarda bir xil darajada namoyon bo'lmaydi — bu farqni aynan institutsional omillar belgilaydi.



O'zbekistonda 2020-yilda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va 2022-yildagi "O'zbekiston Respublikasida elektron hukumatni rivojlantirish konsepsiyasi" hududiy raqamli transformatsiyani jadallastirish uchun huquqiy asos yaratdi. Shu bilan birga, Daron Acemoglu va James A. Robinson [2] ning institutsional iqtisodiyot doirasidagi g'oyalari ko'ra, texnologik innovatsiyalar faqat sifatli institutlar mavjud bo'lgandagina o'z potensialini to'liq ro'yobga chiqarishi mumkin.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, O'zbekistondagi hududlar o'rtasidagi raqamli rivojlanish tengsizligi yuqori bo'lib qolmoqda: Toshkent shahrining internet qamrovi 89,4 % ni tashkil etsa, Surxondaryo viloyatida bu ko'rsatkich atigi 43,2 % ni tashkil etadi [3]. Ushbu farqning institutsional tabiati va uni bartaraf etish mexanizmlari ilmiy tadqiqotlarda yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston hududlari misolida raqamli transformatsiyaning institutsional omillarini aniqlash, ularning hududiy YaIM o'sishiga ta'sirini ekonometrik usullar bilan baholash va samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasi so'nggi yillarda jadal o'rganilmoqda. Don Tapscott [4] "Raqamli iqtisodiyot" asarida raqamlashtirish iqtisodiy faoliyatni tubdan o'zgartirishi va mahsuldorlikni oshirishi mumkinligini ko'rsatdi. Undan keyin Klaus Schwab [5] "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasi doirasida raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish, xizmatlar va boshqaruv jarayonlariga tizimli integratsiyasini tadqiq etdi.

Hududiy o'lchovda Andrés Rodríguez-Pose [6] 30 dan ortiq mamlakat hududlari bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazib, raqamli rivojlanish va hududiy iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatning institutlar sifatiga bog'liqligini isbotladi. David Autor va boshqalar [7] esa raqamli texnologiyalar mehnat bozorini qayta shakllantirish orqali hududiy iqtisodiyotga ta'sir qilishini empirik dalillar bilan ko'rsatdi.

Institutsional iqtisodiyotning zamonaviy nazariyasida Douglass North [8] institutlarni iqtisodiy munosabatlarning qoidalari, cheklovlari va rag'batlantirish tizimi sifatida ta'riflagan. Raqamli transformatsiya kontekstida bu ta'rif qonuniy-me'yoriy baza, raqamli xizmatlar bozorini tartibga solish mexanizmlari va ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligini o'z ichiga oladi.

World Bank hisobotiga [9] ko'ra, raqamli transformatsiyaning samaradorligi bevosita quyidagi institutsional omillarga bog'liq: (1) qonuniy-me'yoriy muhit sifati, (2) e-hukumat xizmatlarining taraqqiyoti, (3) raqamli mahorat va inson kapitalining mavjudligi, (4) kiberxavfsizlik tizimining yetuklik darajasi. David S. Evans va Richard Schmalensee [10] esa raqamli platformalar iqtisodiyotida tarmoq effektlari institutsional muhit bilan o'zaro ta'sirda yanada kuchayishini ko'rsatdi.

O'rta Osiyo mintaqasida raqamli transformatsiya tadqiqotlari nisbatan kam bo'lib, Richard Pomfret [11] O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini institutsional o'zgarishlar nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot masalalarini maxsus o'rganuvchi Yusupov va Qodirov [12] 2020–2023-yillar uchun e-hukumat xizmatlarining hududiy tarqalishini tadqiq etib, infratuzilma kamchiliklari va institutsional bo'shliqlarni aniqlagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2018–2023-yillar davomida O'zbekistonning 14 ta hududi bo'yicha yig'ilgan panel ma'lumotlarga asoslanadi. Jami 154 ta kuzatuv mavjud. Ma'lumotlar quyidagi manbalardan olindi: O'zbekiston Statistika qo'mitasi [3], Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, World Bank ma'lumotlar bazasi va United Nationsning e-hukumat tadqiqot hisobotlari.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ekonometrik modelda quyidagi o'zgaruvchilardan foydalanilgan:

- Bog'liq o'zgaruvchi: hududiy yalpi ichki mahsulot o'sish sur'ati, % (YaIM o'sishi)
- Raqamli infratuzilma indeksi (DII): internet qamrovi, keng polosali aloqa va mobil tarmoq zichligi asosida hisoblangan kompozit indeks (0–1 shkala)
  - E-hukumat indeksi (EGI): onlayn xizmatlar soni va ulardan foydalanish darajasi (0–1 shkala)
  - Institutsional sifat indeksi (IQI): qonunchilik sifati, korrupsiya darajasi va boshqaruv samaradorligi (0–1 shkala)
- Inson kapitali (HC): oliy ma'lumotlilar ulushi va raqamli savodxonlik darajasi
- Savdo ochiqligi (TO): eksport + import / YaIM, %
- Investitsiya hajmi (INV): YaIMga nisbatan asosiy kapital shakllanishi, %



1-jadval. O'zbekiston hududlari bo'yicha raqamli rivojlanish ko'rsatkichlari (2023)

Hudud	Internet qamrovi, %	E-hukumat indeksi	Raqamli infratuzilma indeksi	IKT investitsiyas, mlrd.so'm	YaIM o'sishi, %
Toshkent sh.	89,4	0,72	0,81	4 821	7,8
Samarqand	61,2	0,54	0,59	1 240	5,6
Farg'ona	58,7	0,51	0,57	1 095	5,2
Andijon	56,3	0,49	0,54	980	5
Namangan	54,1	0,47	0,52	870	4,9
Buxoro	52,8	0,46	0,51	820	4,7
Qashqadaryo	48,6	0,42	0,47	690	4,4
Surxondaryo	43,2	0,38	0,43	560	4
Xorazm	49,7	0,44	0,49	710	4,5
Navoiy	51	0,45	0,5	790	4,6
Sirdaryo	46,8	0,4	0,45	620	4,2
Jizzax	44,5	0,39	0,44	590	4,1
Toshkent vil.	67,3	0,59	0,64	1 560	6,1
Qoraqalpog'iston	41	0,36	0,41	510	3,8

Manba: O'zbekiston statistika qo'mitasi [3], axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari vazirligi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlari tahlili hududlar o'rtasida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatmoqda. Toshkent shahri barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yetakchilik qilsa, Surxondaryo va Qoraqalpog'iston mazkur ratametrlar bo'yicha eng past natijalarga ega. Internet qamrovi bo'yicha tafovut deyarli ikki baravar (89,4% va 41,0%), YaIM o'sishi bo'yicha esa, 2% punktni tashkil etadi.

Panel ma'lumotlar uchun asosiy ekonometrik model quyidagi shaklda ifodalanadi [13]:

$$YaIM\_o'sish_{it} = \alpha + \beta_1 \cdot DII_{it} + \beta_2 \cdot EGI_{it} + \beta_3 \cdot IQI_{it} + \beta_4 \cdot (DII_{it} \times IQI_{it}) + \beta_5 \cdot HC_{it} + \beta_6 \cdot TO_{it} + \beta_7 \cdot INV_{it} + \mu_i + \lambda_t + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda:

$i$  — hudud ( $i = 1, \dots, 14$ );

$t$  — yil ( $t = 2018, \dots, 2023$ );

$\mu_i$  — hududga xos fikslangan effektlar;

$\lambda_t$  — vaqtga xos effektlar;

$\varepsilon_{it}$  — xato haddi.

O'zaro ta'sir haddi ( $DII \times IQI$ ) raqamli transformatsiya samaradorligi institutsional muhit sifatiga bog'liq ekanligini tekshirish uchun kiritilgan.

To'rt xil model spetsifikatsiyasi qo'llanildi: (1) Oddiy eng kichik kvadratlar usuli — OLS; (2) Fikslangan effektlar modeli — FE; (3) Tasodifiy effektlar modeli — RE; (4) Ikki bosqichli eng kichik kvadratlar — 2SLS (endogenlik muammosini bartaraf etish uchun). Hausman [13] testi natijalari ( $p = 0.003 < 0.05$ ) FE modelini afzalligini tasdiqlab, endogenlik muammosining mavjudligini ko'rsatdi.

2-jadval. O'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya matritsasi (2018–2023, N=154)

O'zgaruvchi	YaIM o'sishi	DII	EGI	IQI	HC	TO	INV
YaIM o'sishi	1	0.721***	0.683***	0.694***	0.612***	0.541***	0.578***
DII	0.721***	1	0.752***	0.698***	0.581***	0.493***	0.521***
EGI	0.683***	0.752***	1	0.714***	0.563***	0.471***	0.498***
IQI	0.694***	0.698***	0.714***	1	0.542***	0.458***	0.476***
HC	0.612***	0.581***	0.563***	0.542***	1	0.418***	0.437***
TO	0.541***	0.493***	0.471***	0.458***	0.418***	1	0.389***
INV	0.578***	0.521***	0.498***	0.476***	0.437***	0.389***	1

Izoh: \*\*\*  $p < 0.001$ , \*\*  $p < 0.01$ , \*  $p < 0.05$ . DII — raqamli infratuzilma indeksi, EGI — e-hukumat indeksi, IQI — institutsional sifat indeksi, HC — inson kapitali, TO — savdo ochiqligi, INV — investitsiyalar.



Korrelyatsiya tahlili YaIM o'sishi va raqamli infratuzilma indeksi o'rtasida eng yuqori bog'liqlik ( $r = 0.721$ ,  $p < 0.001$ ) mavjudligini ko'rsatmoqda. Barcha asosiy o'zgaruvchilar bilan statistik jihatdan muhim musbat korrelyatsiya aniqlangan. O'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari 0,8 dan oshmaydi, bu multikollinearlik muammosining yo'qligidan dalolat beradi.

3-jadval. Panel ma'lumotlar regression tahlili natijalari (bog'liq o'zgaruvchi: YaIM o'sishi, %)

O'zgaruvchilar	Model 1 (OLS)	Model 2 (FE)	Model 3 (RE)	Model 4 (2SLS)
Raqamli infratuzilma indeksi (DII)	0.412***	0.387***	0.401***	0.445***
	(0.042)	(0.051)	(0.047)	(0.058)
E-hukumat indeksi (EGI)	0.283***	0.261***	0.274***	0.298***
	(0.038)	(0.044)	(0.041)	(0.052)
Institutsional sifat indeksi (IQI)	0.318***	0.295***	0.308***	0.334***
	(0.045)	(0.053)	(0.049)	(0.061)
DII × IQI (o'zaro ta'sir)	0.156**	0.143**	0.151**	0.168**
	(0.061)	(0.072)	(0.066)	(0.078)
Inson kapitali (HC)	0.224***	0.198**	0.213***	0.241***
	(0.053)	(0.062)	(0.057)	(0.069)
Savdo ochiqqligi (TO)	0.187***	0.172**	0.181***	0.203***
	(0.047)	(0.056)	(0.051)	(0.063)
Konstanta	1.241***	1.184***	1.215***	1.263***
	(0.112)	(0.138)	(0.124)	(0.147)
Kuzatuvlar soni (N)	154	154	154	154
R <sup>2</sup> / Within R <sup>2</sup>	0,724	0,689	0,712	0,701
F-statistika	48.21***	41.73***	45.16***	39.87***
Hausman testi (p-qiyamat)	-	0,003	-	-

Izoh: \*\*\*  $p < 0.001$ , \*\*  $p < 0.01$ , \*  $p < 0.05$ . Qavslar ichida standart xatolar ko'rsatilgan. Barcha modellarda vaqt dummies kiritilgan. 2SLS da qo'shimcha instrumentlar sifatida tarixiy telekommunikatsiya infratuzilmasi va qo'shni hudud ko'rsatkichlari ishlatilgan.

Regression natijalari quyidagi muhim xulosalarni bermoqda:

Birinchi, raqamli infratuzilma indeksi (DII) barcha modellarda statistik jihatdan muhim ijobiy ta'sirni ko'rsatmoqda. FE modelidagi koeffitsiyent 0.387 ( $p < 0.001$ ) shuni anglatadiki, DII 1 birlikka oshganda hududiy YaIM o'sishi o'rtacha 0.387 foiz punktga oshadi. 2SLS modeli koeffitsiyentining (0.445) yanada yuqori bo'lishi endogenlikni hisobga olish muhimligini ko'rsatadi.

Ikkinchi, e-hukumat indeksi (EGI) ham barcha modellarda muhim rol o'ynaydi ( $\beta = 0.261-0.298$ ,  $p < 0.001$ ). Bu e-hukumat xizmatlarining iqtisodiy faoliyatdagi transaksion xarajatlarni kamaytirishi orqali o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Uchinchi, institutsional sifat indeksi (IQI) va DII ning o'zaro ta'sir koeffitsiyenti ( $\beta = 0.143-0.168$ ,  $p < 0.01$ ) institutsional muhitning raqamli transformatsiya samaradorligini kuchaytirishini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Bu Daron Acemoglu va James A. Robinson [2] nazariyasini O'zbekiston hududlari misolida tasdiqlaydi.



## 4-jadval. Raqamli transformatsiyaning institutsional omillari va ularning baholash matritsasi

Institutsional omil	O'lovchov mezonlari	Hozirgi holat (Uzbekiston, 2023)	Maqbul daraja	Ta'sir yo'nalishi
Qonuniy-me'yoriy baza	Qonunlar soni, raqamli qonunchilik darajasi	O'rta (6.2/10)	8.0+/10	Ijobiy (+)
E-hukumat rivojlanishi	UN EGDI indeksi, xizmatlar soni	0.68 (global 68-o'rin)	0.80+	Ijobiy (+)
Moliyaviy ta'minot	IKT uchun davlat xarajatlari ulushi, %	2.1% (YaIM dan)	4.0%+	Ijobiy (+)
Inson kapitali	Raqamli savodxonlik, IT mutaxassislar ulushi	42% (aholida)	70%+	Ijobiy (+)
Xususiy sektor hamkorligi	DPP shartnomalar soni, investitsiyalar hajmi	O'rta (5.4/10)	7.5+/10	Ijobiy (+)
Kiberxavfsizlik tizimi	GCI indeksi, qonunlar, infratuzilma	0.51 (global 74-o'rin)	0.75+	Ijobiy (+)

Manba: ITU [14], Jahon banki [9] va O'zbekiston AKT vazirligi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

4-jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda barcha institutsional omillar bo'yicha maqbul darajaga erishishda sezilarli tafovut mavjud. Ayniqsa, raqamli savodxonlik (42 % va maqbul 70 % dan yuqori daraja o'rtasidagi farq) hamda kiberxavfsizlik tizimi (GCI: 0.51 va maqbul 0.75 dan yuqori daraja o'rtasidagi farq) diqqatga sazovor.

Natijalar ishonchligini tekshirish maqsadida bir qator robustness testlari o'tkazildi. Driscoll–Kraay standart xatolari yordamida kesimiy korrelyatsiya va geteroskedastiklik nazorat qilindi. Natijalar asosiy modeldan sezilarli darajada farq qilmadi. COVID-19 pandemic ta'sirini hisobga olish uchun 2020–2021-yillarni qo'shimcha o'zgaruvchi orqali nazorat qilish ham natijalarning barqarorligini tasdiqladi [15].

## XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllandi:

1. O'zbekiston hududlarida raqamli transformatsiyaning institutsional omillari iqtisodiy o'sishning muhim determinantlari hisoblanib, panel regressiya tahlili bu omillarning birgalikdagi izohlovchi kuchi 68,9–72,4 % ni tashkil etishini ko'rsatdi;

2. raqamli infratuzilma va institutsional sifatning o'zaro sinergik ta'siri mavjud bo'lib, bu ta'sir individual ta'sirlarning yig'indisidan ustun bo'ladi;

3. hududlar o'rtasidagi raqamli tengsizlik asosan institutsional omillardagi farqlanish bilan bog'liq.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Hududlashtirilgan raqamli siyosat: Har bir viloyat uchun individual raqamli rivojlanish yo'l xaritasi ishlab chiqilishi zarur. Surxondaryo, Jizzax va Qoraqalpog'iston kabi ortda qolayotgan hududlar uchun differensiallashtirilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi lozim.

2. Institutsional salohiyatni mustahkamlash: e-hukumat xizmatlari qamrovini kengaytirish, raqamli huquqlarni himoya qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish hamda mahalliy boshqaruv organlarining raqamli salohiyatini rivojlantirish zarur.

3. Inson kapitaliga sarmoya: Hududiy universitetlar va kasb-hunar kollejlarda raqamli ko'nikmalar dasturlarini kengaytirish, qishloq hududlarida raqamli savodxonlik markazlarini tashkil etish muhimdir.

4. Xususiy sektor sherikchiligini rivojlantirish: Raqamli infratuzilmani qurish va boshqarishda davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) modelini keng joriy etish, IKT startaplari uchun hududiy texnoparklar tashkil etish lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Erik Brynjolfsson, Andrew McAfee. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W. W. Norton & Company, 2014. – 336 p.
- Daron Acemoglu, James A. Robinson. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. – New York: Crown Publishers, 2012. – 529 p.
- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston raqamlarda: statistik to'plam. – Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi nashri, 2024. – 487 b. – URL: stat.uz
- Don Tapscott. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1997. – 342 p.
- Klaus Schwab. The Fourth Industrial Revolution. – New York: Crown Business, 2016. – 192 p.



6. Andrés Rodríguez-Pose. Do institutions matter for regional development? // *Regional Studies*. – 2013. – Vol. 47. – No. 7. – Pp. 1034–1047. – DOI: 10.1080/00343404.2012.748978
7. David Autor, Frank Levy, Richard J. Murnane. The Skill Content of Recent Technological Change: An Empirical Exploration // *The Quarterly Journal of Economics*. – 2003. – Vol. 118. – No. 4. – Pp. 1279–1333.
8. Douglass C. North. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 159 p.
9. World Bank. *World Development Report 2023: Migrants, Refugees, and Societies*. – Washington, DC: World Bank, 2023. – URL: [worldbank.org/wdr2023](http://worldbank.org/wdr2023)
10. David S. Evans, Richard Schmalensee. *Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms*. – Boston: Harvard Business Review Press, 2016. – 272 p.
11. Richard Pomfret. *The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road*. – Princeton: Princeton University Press, 2019. – 296 p.
12. Yusupov Y., Qodirov S.. O'zbekistonda e-hukumat xizmatlarining hududiy tarqalishi va samaradorligi // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2023. – № 4. – B. 112–128.
13. Jerry A. Hausman. Specification tests in econometrics // *Econometrica*. – 1978. – Vol. 46. – No. 6. – Pp. 1251–1271. – DOI: 10.2307/1913827
14. International Telecommunication Union. *Measuring Digital Development: Facts and Figures 2023*. – Geneva: ITU Publications, 2023. – URL: [itu.int/en/ITU-D/Statistics](http://itu.int/en/ITU-D/Statistics)
15. John C. Driscoll, Aart C. Kraay. Consistent Covariance Matrix Estimation with Spatially Dependent Panel Data // *The Review of Economics and Statistics*. – 1998. – Vol. 80. – No. 4. – Pp. 549–560.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 4

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---